

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 637 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalendarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Kopak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему	24
С.С. Исмаилов	
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir.....	45
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish	49
Idrisov Alisher Otajonovich	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlari.....	53
Sultanov Maxmud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitara Sunnat kizi	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики.....	61
Вохидова Мехри Хасановна	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран.....	69
Буранова Лола Вахобовна	
Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....	78
Babamatov Tolib Hakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari.....	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций.....	116
Умида Юлдашева	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari	138
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
Jumanazarova Z.K.	
Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri	154
Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich	
Oliygochlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari	158
Adizov Sanjar Rashidovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish	165
Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi	
Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме.....	174
Касимова Зилова Гуламиддиновна	
O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantirish	182
Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li	
Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане	186
Шахзод Сайдуллаев	
Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish	192
Ahmedov Komron Muhammadaliyevich	
Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	196
Quyjanov Xurshid Abdullayevich	
Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari	200
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi o'rni va ahamiyati.....	206
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
Анализ международного опыта в сфере тепличного овощеводства	214
Нурутдинова Зухра Алишеровна	
Hududda turizm xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarining mohiyati	220
Madaminova Sanobar Askarovna	
Hududning iqtisodiy o'sishini "yashil" iqtisodiyot asosida shakllantirishning nazariy asoslari.....	226
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li	
Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi faoliyati tahlili.....	230
Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish.....	234
Uzakova Umida Ruziyevna	
O'zbekistonda turistik majmualarni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari va yondashuvlarining metodologik jihatlari.....	241
Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li	
Aktiv va reaktiv quvvatlari tushunchasi va ularni soliqqa tortishdagi mavjud muammolar	247
Boykabilov Bahodir Mustafayevich	



Kichik sanoat zonalari korxonalar va mahsulotlar raqobatbardoshligini baholashga uslubiy yondashuv	251
Ozoda Batirovna Sakiyeva	
Investitsion jozibadorlikni baholashning uslubiy jihatlari	255
N.N.Zikrillayev	
Hududlarda turizm tarmoqlari infratuzilmasi va uni rivojlantirishni boshqarishning metodologik jihatlari	263
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
The connection of legal protection of geographical indications and state's economic growth	268
Almosova Shahnoza Sobirovna	
Kichik biznesning integratsiyalashuv mexanizmlarini shakllantirish	273
Israilov Rustam Ibragimovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
D.D. Suvanova	
Оптимизация маркетинговой деятельности вузов узбекистана для привлечения абитуриентов	283
Шамшиева Наргизахон Носирхужа кизи	
Davlat budjetidan aholini uy-joy bilan ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari	290
Xannarov Komiljon Karimovich	
Tijorat banklarida transformatsiyalashuv jarayonlarining tahlili	296
Yoqubov Murodjon Valibekovich	
Роль инновационных инфраструктур в обеспечении конкурентоспособности промышленных предприятий	302
Каримов Хожакбар Махамаджон угли	
O'zbekiston qishloq xo'jaligida Osiyocha ishlab chiqarish usuliga asos solinishi	306
Abdulla Abduqodirov	
Kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarishda innovatsion jarayonlarni tadqiq qilish yo'llari	312
Nasrullayev Feruz Furqatovich	
Ijtimoiy-iqtisodiy adolat – barqaror rivojlanish kafolati	318
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
“Istiqlol” memhonxonasi reklama faoliyati tahlili	322
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna	
To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda asosiy belgilovchi omillar	328
Xaydarov Xurshidbek Latipjonovich	
Enhancing Industrial Efficiency through Integrative Sustainability Approaches	334
Kholmukhamedova Feruza	
Современные способы получения нефтяных битумов	338
Юлдашев Норбек Худайназарович, Махмудов Мухтор Жамолович, Комолов Руслан Илхомбекович	
O'zbekistonda agrobiznes orqali hududlarni rivojlantirish masalalari	342
Islomov Jamshed Davronovich	
Зарубежный опыт трансформации железнодорожной транспортной системы	347
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна	
Sog'liqni saqlash sohasida davlat xususiy sherikligini tashkil etishning mintaqaviy xususiyatlari	351
Qurbanov Jumanazar Omonovich	
Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda hisob siyosatini shakllantirish	354
Uzakov Utkir Abdusattarovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	357
Gulbayeva Feruza Islamovna	



Ta'lim muassasalarida namunaviy shtat, jadvallarni tuzish tartiblarini takomillashtirish	364
Ortiqov Xamroqul Abdumajidovich, Boliyev Bahromjon Rustam o'g'li	
Mamlakatimizda turizm sohasini istiqbolda rivojlantirishga ta'sir etuvchi ekzogen omillar tahlili	369
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining masofaviy va boshqa xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish masalalari.....	378
Ortiqov Oybek Abdullayevich	
Transport infratuzilmasining xususiyatlari.....	390
Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi	
Asosiy vositalarni xalqaro standartlar asosida hisobga olish tartibi	394
Shermatov Sirojiddin Haydarovich	
Logistika jarayonlarida raqamli yechimlar.....	399
Yarashova Vasila Kamalovna, Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
To'g'ridan to'g'ri sug'urta qilish operatsiyalari bo'yicha daromadlarning hisobini takomillashtirish.....	403
Abdusaidov S.J.	
Venchur kapitali: kelib chiqish tarixi va ilg'or horijiy tajribalar.....	409
Do'stov Firuz Ilxomovich	
Анализ статистического исследования рынка паломнического туризма в республике узбекистан	414
Мустаева Шохида Саъдуллаевна	
Структурно-функциональный анализ гастрономического туризма в республике узбекистан	420
Салиева Екатерина Сергеевна	
Вопросы привлечения внешнего финансирования металлургических предприятий в узбекистане.....	427
Татьяна Будей	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning afzalliklari	431
Khusanov Nodirbek Djumanazarovich	
Innovatsion g'oyalar va yangi ilmiy ishlanmalar asosida innovatsion mahsulotlar yaratishning boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish yo'llari.....	437
Daliyev Xusan Xojakbarovich	
Macroeconomic factors in the development of the banking performance	442
Mamadiyorova Madina Nuriddin kizi, Dr.Susanti Kurniawati, X.S.Umarov	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	449
Turg'unov Muxridin Mo'yidinjon o'g'li	
Ecological sustainability and trade: economic and environmental implications of uzbekistan's accession to the WTO	453
Mironshokh Sattarov, Denny Andriana, Sirojiddin Yangiboyev	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishni o'ziga xos tendensiyalari.....	458
Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich	
Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning ilmiy – nazariy asoslari.....	468
Davletov Po'lat Torabayevich	
Ekoshahar tashkil etishda "yashil" belbog' hamda "yashil" makonning o'rni	476
Karimova Muqaddas Zabixullayevna	
Необходимость изучения механизма управления социально-трудовыми отношениями при переходе республики узбекистан на "зеленую" экономику	479
Раматов Зафарбек Жуманиязович	



Klasterlarning rivojlanish tarixi, ularning o'ziga xos xususiyatlari va raqobatbardoshlikdagi o'rni.....	482
Sherkulov Shohruh Erkin o'g'li	
Soliqlarni raqamlashtirish: QQS ning muammo va istiqbollari	486
Abdulxayeva Shahnoza Muhammadiyevna	
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida sug'oriladigan yerlarning unumdorligini oshirish yo'llari.....	492
Xo'jageldiev Chorshanbi Pardayevich	
Topical issues of analytical support for financial resources management of business entities in modern conditions	498
Jiyanova Nargiza Esanboyevna	
Исследование цифровой валюты центрального банка как новой формы денег.....	506
Якубова Шамшинур Шухратовна	
Структуризация прибыли предприятия, факторы формирования и выявление резервов её повышения.....	513
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Xorijiy mamlakatlarda oilaviy migratsiya masalalari.....	517
Kadirova Zulayho Abduhalimovna, Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafvna	
Ta'limda innovatsion tadbirkorlikning tarixiy rivojlanishini asosiy bosqichlari.....	522
Madaminova Xusnidaxon Shuxratovna	
Integratsiya jarayonida bog'dorchilikda klasterlarni barpo qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar va tarkibiy o'zgarishlarga ta'siri.....	526
Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich	
Banklarning moliyaviy xavfsizligi va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri.....	532
Mamatov Mamajan Axmadjonovich	
Qishloq xo'jaligida pillachilik biznesini rivojlantirish istiqbollarini belgilash jarayonini ekonometrik modellashtirish.....	535
Turgunov Odilbek Maripovich	
Zamonaviy pul-kredit siyosatining iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi rolini baholash.....	542
Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich	
The unique characteristics of governance systems in various countries: a comparative analysis.....	549
Bozorboev Otamurod Nurmuxammad ugli, Denny Andriana, Usmanov Bunyod	
GREEN ECONOMY AND GREEN CHEMISTRY: principles, priorities, advantages and it's impact to the future.....	553
Fozilova Firangiza Komilovna, Zokirova Ferangiz Zafarovna	
Kichik biznesda yoshlar tadbirkorligini shakllantirish va rivojlantirishning mohiyati va ahamiyati.....	557
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
Tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari.....	562
Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon o'g'li	
Temir yo'l transportida yuk tashish samaradorligining iqtisodiy negizi tushunchasi va xususiyati.....	568
Shukurova Sultana Suidsultanovna	
Tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqalarining hozirgi holati va tendensiyasi.....	572
Hayitova Nigora Ilxomovna	
Mamlakat tashqi qarzini boshqarishning samarali yo'llari.....	576
Choriyev Fazliddin Ishkuvatovich	
A comparative analysis of investment risk management in the non-profit sector	583
Rakhimov Shoxrux Abduqaxxor O'g'li, Muhamad Arief Ramdhany	
Роль налога на доходы физических лиц в формировании бюджета узбекистана.....	587
Наврузова Фарогаатхон	



Принцип работы электронных денег в форме электронных кошельков в банковском секторе	592
Ширинова Шохсанам Собир кизи	
Дальнейшее повышение эффективности деятельности постов удаленного электронного декларирования путем преобразования их структуры и алгоритма взаимодействия	598
Вахидова Феруза Алимовна	
Ishbilarmonlik muhitining mohiyati hamda uni baholashning zamonaviy usullari.....	603
Majidov Faxriddin Abdurazzok o'g'li	
Davlat moliyaviy siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati	609
Jabborova Dilafruz Sodiq qizi	
Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida kichik biznes subyektlari faoliyatining ahamiyati	614
Ismoilov Narimonjon No'monjon o'g'li	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari.....	619
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
Telekommunikatsiya sanoatining rivojlanish tendensiyalari.....	625
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
O'zbekistonda xizmatlar sohasi va uning amaldagi holati tahlili.....	631
Suyunov Asror Baxtiyorovich	



O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR SOHASI VA UNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

Suyunov Asror Baxtiyorovich

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishi va uning iqtisodiyotga qo'shayotgan his-sasi tahlil qilingan. Xizmatlar sohasining turli yo'nalishlari, jumladan, axborot texnologiyalari, moliya va transport xizmatlari, shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlar tahlil etilgan. Tahlillar natijasida xizmatlar sohasining o'sish sur'ati, sifati va iqtisodiy samaradorligi haqida muhim xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: xizmatlar sohasi, iqtisodiy o'sish, axborot texnologiyalari, moliya xizmatlari, transport xizmatlari, ta'lim xizmatlari, O'zbekiston iqtisodiyoti.

Abstract: This article analyzes the development of the service sector in Uzbekistan and its contribution to the economy. Various directions of the service sector are examined, including information technology, financial and transport services, as well as educational services. The analysis results in important conclusions about the growth rate, quality, and economic efficiency of the service sector.

Key words: Service sector, economic growth, information technology, financial services, transport services, educational services, Uzbekistan economy.

Аннотация: В данной статье анализируется развитие сектора услуг в Узбекистане и его вклад в экономику страны. Рассматриваются различные направления сектора услуг, включая информационные технологии, финансовые и транспортные услуги, а также услуги в сфере образования. В результате анализа делаются важные выводы о темпах роста, качестве и экономической эффективности сектора услуг.

Ключевые слова: Сектор услуг, экономический рост, информационные технологии, финансовые услуги, транспортные услуги, образовательные услуги, экономика Узбекистана.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda barqaror o'sish sur'atlarini namoyish etmoqda. Bu o'sishning muhim omillaridan biri ta'lim tizimi va iqtisodiyot o'rtasidagi samarali hamkorlikdir. Xizmatlar sohasi mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va aholining farovonligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda O'zbekiston xizmatlar sohasida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda, bu esa sohaning jadal rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Shu sababli xizmatlar sohasining hozirgi holatini chuqur tahlil qilish va uning rivojlanish istiqbollari aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda xizmatlar sohasi va uning rivojlanishi bu borada o'ziga xos ahamiyatga ega. Ushbu maqolada xizmatlar sohasining tahlili, xizmatlar ko'rsatish hajmi va sifati hamda ta'lim tizimi bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqiladi. Shu jumladan, iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, axborot va aloqa sohasidagi xizmatlar, moliya xizmatlari, transport xizmatlari va boshqa muhim yo'nalishlar haqida ma'lumotlar taqdim etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida xizmatlar sohasining o'rni va ahamiyati katta. Xizmatlar sohasi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shadi va bandlikni oshirishda, daromadlarni ko'paytirishda muhim rol o'ynaydi. Bu borada bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ushbu adabiyotlar sharhining maqsadi ushbu tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va umumlashtirishdan iborat.

Yaqin yillarda O'zbekistonda xizmatlar sektorining rivojlanishi bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borildi. A. Murodovning tadqiqotida xizmatlar sohasining iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilinadi. U xizmatlar sektorining iqtisodiy o'sishga bevosita va bilvosita ta'sirini o'rganib chiqib, uning milliy iqtisodiyotdagi ulushi oshib borayotganligini qayd etgan[1].

Xalqaro tajribalarni o'rganish natijasida Xitoy va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda xizmatlar sektorining iqtisodiy rivojlanishga qo'shgan hissasi o'rganilgan J. Lee tadqiqotlarida keng o'rganilgan. Bu tadqiqotlar



O'zbekistonda xizmatlar sohasini rivojlantirishda ushbu mamlakatlarning tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi [2].

Ta'lim sohasida xizmatlar sifatini oshirish va ta'lim tizimining iqtisodiyotga ta'siri bo'yicha bir qator tadqiqotlar mavjud. B. Karimov ta'lim xizmatlarining iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganib, ta'lim tizimidagi islohotlar va innovatsiyalarning iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasini tahlil qilgan [3]. Unga ko'ra, ta'lim sohasidagi investitsiyalar va islohotlar natijasida mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlari oshgan.

Axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotning xizmatlar sohasiga ta'siri bo'yicha ham keng qamrovli tadqiqotlar mavjud. S. Axmedov O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalarini o'rganib, bu sohadagi yutuqlar va muammolarni tahlil qilgan [4]. Unga ko'ra, axborot texnologiyalari xizmatlar sohasining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Xizmatlar sohasi va uning amaldagi holatini o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti 2022-yilda O'zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishini o'rganib chiqdi. O'rganishlarga ko'ra, xizmatlar sohasidagi o'sish 2021-yildagiga nisbatan 15,9 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich, asosan, aloqa va axborotlashtirish, ta'lim, yashash va ovqatlanish, ko'chmas mulk, ijara, transport hamda moliyaviy xizmatlar kabi yo'nalishlardagi sezilarli o'sish (12-29,5 foiz) hisobiga ta'minlandi.

Aholining real daromadlari yuqori bo'lgan Toshkent shahri bilan bir qatorda, Namangan, Buxoro, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida ham xizmatlar sohasida yuqori o'sishga erishildi. Butun mamlakatdagi kabi bu hududlarda ham, asosan, moliyaviy xizmatlar hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga talab yuqori bo'ldi.

Andijon va Sirdaryo viloyatlarida xizmat ko'rsatish sohasidagi o'rtacha o'sishi sur'ati (12,5 -13 foiz) biroz pasaydi. Bunga mazkur hududlarda xizmat ko'rsatish sohasining asosiy yo'nalishi bo'lgan savdo va transport xizmatlarining (jami xizmatlar hajmidagi ulushi mos ravishda 50,6 foiz va 38,2 foiz) o'sishidagi sekinlashish sabab bo'ldi.

Birinchidan, 10 ta hududda YaHM tarkibida xizmatlar sohasining ulushi ortishi ta'minlandi (YaIM tarkibidagi ulushi 2021-yildagi 39,6 foizdan 2022-yilda 41,5 foizga ortdi).

Ma'lumot uchun, Rossiya Federatsiyasida YaIM tarkibida xizmatlarning ulushi 68 foiz, Qozog'istonda 64 foiz, Belarusda 59 foiz, Janubiy Koreyada 60 foiz va rivojlangan davlatlarda 74 foizdan yuqoridir.

Hududlararo tafovutlarni (Toshkent shahrini hisobga olmaganda) 2 barobardan 1,9 barobargacha qisqartirishga erishildi. Aksariyat hududlarning (8 ta hudud) respublika bo'yicha xizmatlar hajmidagi ulushi (Toshkent shahrini hisobga olmaganda) ortdi. Mamlakatning ko'pgina hududlarida (7 ta hudud) aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi 5-6 mln so'm oralig'ida bo'lib, Navoiy, Toshkent va Buxoro viloyatlarida bu ko'rsatkich 7,9-10,0 mln. so'mni tashkil etdi. Toshkent shahri 47,2 mln. so'mlik ko'rsatkich bilan bu yo'nalishda ham yetakchi mavqega ega. Umuman olganda, xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar bir tomondan bandlikni, shu jumladan, o'z-o'zini band qilish va aholi daromadlarini oshirishning asosiy omili hisoblansa, boshqa tomondan, hududlar iqtisodiy rivojlanishining potensial drayveri bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2022-yilda 2015-yilga nisbatan axborot va aloqa sohasidagi xizmatlar 4,7 barobarga yoki 288 360,6 mlrd.so'mga oshgan, bu ko'rsatkichning o'sishiga asosiy sabab – Respublika miqyosida aloqa sohasining shiddat bilan jadal rivojlanganligini keltirib o'tish mumkin. Moliya xizmatlari 2015-yilda 8 206,7 mlrd.so'mni, 2022-yilga kelib, bu ko'rsatkich 80 849,1 mlrd.so'mni tashkil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, so'nggi 8-yil ichida 9,9 barobarga oshgan. Transport xizmatlari 2015-yilda 26 217,3 mlrd.so'mni, 2022-yilda esa 83 985,6 mlrd.so'mni tashkil qildi. Bu sohada ham ko'rsatilayotgan xizmatlar turlari oshgani 2022-yil yakuni bo'yicha 2015-yilga nisbatan 3,1 barobarga oshgan. Bunga misol qilib qo'shni davlatlarga xalqaro reyslarni tashkil qilinganligi va temir yo'l sohasida tez yurar poyezdlarni yo'lga qo'yilganligini keltirish mumkin.

Savdo xizmatlari 2015-yilda 21 366,9 mlrd.so'mni, 2022-yilda esa 89 816,2 mlrd.so'mni tashkil qilib, bu sohada ham so'nggi 8-yilda o'sish sur'ati 4,2 barobarga oshgan. Iste'molchilarga yanada qulayliklarni oshirish maqsadida sotilgan mahsulotlarni tekin yetkazib berish xizmatlari yo'lga qo'yilishi ham ma'lum bir sanalarda

va ma'lum miqdordalarda chegirmalar e'lon qilinishi, maishiy texnikalarni bo'lib to'lash sharoitlari yaratilganligiga ham bog'liq.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 2015-yilda 2 757,3 mlrd.so'mni, 2022-yilda esa 9 581,7 mlrd.so'mni tashkil qilib, 3,5 barobarga oshgan.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar 2015-yilda 2 681,4 mlrd.so'mni, 2022-yilda esa 15 858,4 mlrd.so'mni tashkil qiladi va ushbu davrda o'sish sur'ati 5,9 barobarni tashkil qiladi. Bunga misol qilib, nogironligi bo'lgan talabalarga qo'shimcha kvotalarning ajratilishi, iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli stipendiyalar joriy qilishi, xususiy oliy o'quv yurtlari sonini keskin oshirish hisobiga yoshlarimizni xorijga borib o'qishlari va o'zga yurtlarda yot g'oyalar (turli radikal guruhlar) faoliyatiga qo'shilishlari ham oldini olish imkonini bermogda. Bundan tashqari xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida shartnoma asosida magistratura kontraktlari davlat tomonidan qoplab berilishi va nogironligi bor talabalarga yotoqxonalarining tekin qilib berilganligi, ijarada yashaydigan talabalarga ijara pulining 50 foizi qoplab berilishini ham keltirib o'tishimiz mumkin.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarga to'xtaladigan bo'lsak, 2015-yilda 1 100,4 mlrd. so'mni, 2022-yilda esa 6 613,1 mlrd.so'mni tashkil qildi. 2022-yilda 2015-yilga nisbatan 6 barobarga oshgan. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturiga muvofiq sog'liqni saqlash sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, aholiga bepul tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning davlat tomonidan kafolatlangan darajasi va sifatini ta'minlash, boshqarishning barcha darajalarida aholiga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini tashkil etish va mustahkamlash, sog'liqni saqlash tizimini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish, shu jumladan, davolash-profilaktika muassasalarining bosqichma-bosqich pulli xizmatlar ko'rsatishga o'tkazilishini ta'minlash, jahon standartlariga javob beradigan zamonaviy klinikalarni, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda barpo etish jarayonlari tashkil qilinmoqda.

Kompyuterlar, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarga to'xtaladigan bo'lsak, 2015-yilda 1 724,5 mlrd.so'mni, 2022-yilda esa 5 707,3 mlrd.so'mni tashkil qildi. 2022-yilda 2015-yilga nisbatan 3,3 barobarga oshgan.

Shaxsiy xizmatlarga to'xtaladigan bo'lsak, 2015-yilda 2 366,5 mlrd. so'mni, 2022-yilda esa 8 670,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, ushbu davrda o'sish sur'ati 3,7 barobarga teng bo'lgan.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi ham 2015-yilda 841,0 mlrd. so'mni, 2022-yilda esa 7 284,2 mlrd.so'mni tashkil qilib, so'nggi 8-yil ichida o'sish sur'ati 8,7 barobarga yoki 6 443,2 mlrd.so'mga teng bo'lgan.

Boshqa xizmatlarga to'xtaladigan bo'lsak, 2015-yilda 2 794,7 mlrd. so'mni, 2022-yilda esa 14 429,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. 2022-yilda 2015-yilga nisbatan 5,2 barobarga oshgan. Aholining ichki bozordagi tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish uchun tijorat va turli xizmatlarni ko'rsatish, xizmat ko'rsatishni tashkil etish korxonaning asosiy maqsadidir.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarga muvofiq hamda iqtisodiyot tarmoqlari va davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish orqali respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadi belgilab berildi.

Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektori sohasida 2015-yil 3 876,3 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil yakuniga kelib 27 791,2 mlrd.so'mgacha etdi va 2015–2022-yillar davomida qariyb 7,17 barobarga oshdi (1-jadval).

1-jadval. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi [6].

Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2022 yilda 2015 yilga nisbatan % da
Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektori	3 876,3	4 967,7	6 377,8	7 732,1	8 491,9	10 777,0	16 939,5	27 791,2	716,96
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori	3 581,7	4 575,3	5 849,0	6 876,8	7 323,0	9 095,9	11 567,6	16 089,9	449,22
AKT ishlab chiqarish	141,7	127,2	238,3	301,9	279,4	540,1	503,3	805,5	568,45
AKT savdosi	140,8	228,0	281,6	236,2	293,3	252,3	367,8	594,0	421,87



AKT xizmatlari	3 299,2	4 220,1	5 329,1	6 338,7	6 750,3	8 303,5	10 696,4	14 690,4	445,27
Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari	294,6	392,4	518,7	750,1	908,9	1 089,7	1 464,6	1 944,9	660,18
Elektron tijorat	-	-	10,1	105,2	260,0	591,4	3 907,3	9 756,4	-

Barchamizga ma'lumki, bugun dunyo miqyosida turli sohalarda axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularsiz zamonimizni tasavvur etish mushkul.

Xususan, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va sodir bo'lganda to'g'ri harakatni amalga oshirishda aloqa va axborotlashtirish tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. 2018-yilda axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori 3 581,7 mlrd.so'mni, 2022-yilga kelib esa 16 089,9 mlrd.so'mni tashkil qildi. Mazkur yillar mobaynida o'sish sur'ati 4,49 barobarni yoki 12 508,2 mlrd.so'mni tashkil qiladi. 2015-yilda tarmoqda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmining qariyb 92,4 foizi AKT sektoriga, shundan 3,7 foizi AKT ishlab chiqarish, 3,6 foizi AKT savdosi, 85,1 foizi AKT xizmatlari ulushiga to'g'ri keladi. Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari xizmatlari 7,6 foizga teng bo'lgan. Elektron tijorat yo'nalishi esa 2015-yilda deyarli rivojlanmagan va o'z ulushiga ega bo'lmagan.

2022-yil yakuniga kelib esa ushbu ko'rsatkichlar tubdan o'zgardi. Jumladan, tarmoqda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmining 57,9 foizi AKT sektoriga, shundan 2,9 foizi AKT ishlab chiqarish, 2,14 foizi AKT savdosi, 52,86 foizi AKT xizmatlari ulushiga to'g'ri keladi.

Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari xizmatlari 7 foizga teng bo'lsa, elektron tijoratni rivojlantirish borasida ko'rilgan choralar natijasida uning ulushi 2015-yildagi 0 foizdan 2022-yilga kelib 35,1 foiz ulushga ega bo'ldi.

Davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish orqali respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektori sohasida 2015-yilda 1,9 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yil yakuniga kelib 3,4 foizni tashkil qildi va 2015–2022-yillarda 1,5 birlikka oshdi. Barchamizga ma'lumki, yurtimizdagi turli sohalarda axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularsiz zamonimizni tasavvur etish mushkul. Xususan, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va sodir bo'lganda to'g'ri harakatni amalga oshirishda aloqa va axborotlashtirish tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. 2015-yilda Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohasida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning YaIMda AKT sektori ulushi 1,8 foizni tashkil qilgan bo'lsa, shundan 0,1 foizi AKT ishlab chiqarish, 0,1 foizi AKT savdosi, 1,6 foizi AKT xizmatlari ulushiga to'g'ri keladi.

2-jadval. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohasida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (foizda) [6].

Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektori	1,9	2,1	2,3	2,0	1,7	1,9	2,5	3,4
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori	1,8	2,0	2,1	1,8	1,5	1,6	1,7	1,9
AKT ishlab chiqarish	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1
AKT savdosi	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,0	0,1	0,1
AKT xizmatlari	1,6	1,8	1,9	1,7	1,4	1,5	1,6	1,8
Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari	0,1	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2
Elektron tijorat			0,0	0,0	0,1	0,1	0,6	1,2

Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari xizmatlari ulushi 0,1 foizga teng bo'lgan va elektron tijorat ulushi esa o'z o'rnini topmagan edi. 2022-yil yakuniga kelib esa ushbu ko'rsatkichlar ham tubdan o'zgardi. Jumladan, AKT sektori ulushi 0,1 foiz birlikka oshib, 1,9 foizni, shundan AKT ishlab chiqarish 0,1 foiz, AKT savdosi 0,1 foizi, AKT xizmatlari ulushi esa 1,8 foizga to'g'ri keldi. Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari xizmatlari 0,2 foizga teng bo'lsa, elektron tijoratni rivojlantirish borasida ko'rilgan choralar natijasida uning ulushi 2015-yildagi 0 foizdan 2022-yilga kelib 1,2 foiz ulushga ega bo'ldi.



Kompyuter va periferik uskunalar 2015-yilda 1 751 ming AQSH dollarni, 2022-yilga kelib 28 082,6 ming AQSH dollarni tashkil qildi va shu davrda qariyb 26 331,6 ming AQSH dollarga ko'payganligini ko'rish mumkin. Buning asosiy sababi, mahalliyashtirish dasturlari doirasida respublikamizda xorijiy investorlar ishtirokida tashkil etilgan qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan (yig'ilgan) kompyuter qurilmalarini xorijga eksporti hajmi keskin oshganligi bilan izohlanadi. Aloqa uskunalari 2015-yilda 1 525,3 ming AQSH dollarni, 2022-yilga kelib 9 786,7 AQSH dollarni tashkil qilib, xuddi shu davrda o'sish sur'ati 6,42 barobarni tashkil qiladi.

Elektron uy jihozlari 2015-yilda 275 ming AQSH dollarni, 2022-yilga kelib 43 678,2 ming AQSH dollarni tashkil qildi va 43 403,2 ming AQSH dollarga o'sgan. Komponentlar 2015-yilda 2 787,1 ming AQSH dollarni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 1 849,2 ming AQSH dollargacha yoki 32 foizga kamaygan. Boshqa tovarlar 2018-yilda 8 ming AQSH dollarni, 2021-yilda esa 170 ming AQSH dollarni tashkil qiladi. Hozirgi kunda kompyuter olami juda katta tezlik bilan rivojlanib bormoqda. Bunga juda ko'p sabablar bor. Eng asosiy sabablardan biri bu — kompyuter orqali inson tomonidan bajariladigan ishlarning deyarli barchasi bajarilmoqda. Nafaqat bajarilmoqda, balki osonlik va tez bajarilmoqda. Undan tashqari maromiga yetkazilib, ishlar bitkazilmoqda. Bu ishlarni bajarishda, kompyuter bir o'zi emas, balki kompyuterga ulanadigan periferik qurilmalar yordamida amalga oshirmoqda.

Kompyuter va periferik uskunalar importi 2015-yil 94 261,5 ming AQSH doll.ni, 2022-yilga kelib 369 278,6 ming AQSH doll.ni tashkil qildi va shu davr oralig'idagi o'sish sur'ati 275 017,1 ming AQSH doll.ni yoki 3,92 barobarni tashkil qiladi.

Aloqa uskunalari importi 2015-yilda 170 724,1 ming AQSH dollarni, 2022-yilga kelib esa 424 212 ming AQSH dollarni tashkil qiladi va 2022 va 2015-yillar ichida 253 487,9 ming AQSH dollarga (2,48 barobarga) ko'paygan. Elektron uy jihozlari 2015-yilda 19 909,8 ming AQSH dollarni, 2022-yilga kelib 92 748 ming AQSH dollarni tashkil qiladi va shu davrdagi o'sish miqdori 72 838,2 ming AQSH dollarni tashkil qiladi, bundan ko'rinib turibdiki, oxirgi 8-yilda ushbu tur mahsulotlar importi salmog'i keskin oshgan. Komponentlar esa 2015-yildagi 44 930,8 ming AQSH dollardan 2022-yildagi 201 693,5 ming AQSH doll.gacha (4,49 barobar) o'sgan. Boshqa tovarlar 2015-yilda 28 683,7 ming AQSH doll.ni, 2022-yilga kelib esa 37 492,5 ming AQSH dollarni tashkil qildi va 8-yil ichida 8 808,8 ming AQSH dollarga ko'paygan. Yangi iqtisodiyotda kompaniyalar va biznes hamjamiyatlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati muammosi yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, deyarli bir zumda sayyoramizning istalgan nuqtasiga ko'chirilishi mumkin bo'lgan bo'sh pul miqdori shunchalik kattaki, ulardan alohida shaxslar manfaati uchun foydalanish butun mintaqalar iqtisodiyotiga tahdid solishi mumkin. Yaqinda bo'lib o'tgan Osiyo inqirozi butun jahon moliyaviy-iqtisodiy tizimiga jiddiy ogohlantirishdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishi iqtisodiy o'sishning muhim drayveri bo'lib, bu sohada qo'lga kiritilgan yutuqlar mamlakatning umumiy rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, moliya va transport xizmatlarining jadal rivojlanishi ijobiy natijalarni bermoqda. Shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlar ham o'z o'rnida iqtisodiyotga katta hissa qo'shayotganligini ko'rsatmoqda. Ushbu sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar va qabul qilinayotgan chora-tadbirlar iqtisodiy faoliyatning barcha turlarida xizmatlar hajmi va sifatini oshirishga qaratilgan.

Tahlillardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflar shakllantirildi:

Xizmatlar sifatini yaxshilash uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va xizmat ko'rsatish sohasidagi xodimlarning malakasini oshirish lozim.

Ta'lim tizimida sifatli kadrlar tayyorlash uchun davlat tomonidan qo'shimcha mablag'lar ajratish va xususiy sektorni jalb etish zarur.

Xizmatlar sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish va qo'shimcha rag'batlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish kerak.

Axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun infratuzilmani yanada kengaytirish va bu sohada davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish zarur.

Xizmatlar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini faollashtirish va innovatsiyalarni joriy etish orqali xizmatlar hajmi va sifatini oshirishga e'tibor qaratish kerak.

Yuqoridagi takliflar O'zbekistonda xizmatlar sohasining yanada rivojlanishiga va iqtisodiy o'sishning barqaror bo'lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Murodov A. (2019). Analysis of the Impact of Service Sector Development on Economic Growth in Uzbekistan. Central Asian Economic Review, 21(4), 54-73.
2. Lee J. (2018). The Role of the Service Sector in Economic Growth: Evidence from China and South Korea. Asian Economic Journal, 32(1), 45-67.



3. Akhmedov S. (2021). Digital Economy Development in Uzbekistan: Achievements and Challenges. *Journal of Economic Research*, 34(2), 112-130.
4. Karimov B. (2020). The Impact of Educational Services on Economic Growth in Uzbekistan. *Economics and Education Review*, 29(3), 89-102.
5. OECD. (2019). *Digital Economy Outlook 2019*. Organization for Economic Co-operation and Development. Retrieved from OECD iLibrary.
6. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика агентлиги маълумотлари.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

